

**Qishloq xo‘jaligi vazirligida 2024-yilda korrupsiyaga qarshi kurashish  
tizimining amal qilishi haqida  
UMUMIY HISOBOT**

**I. Korrupsiyaga qarshi chora-tadbirlar dasturi bajarilgani to‘g‘risida  
umumiyl axborot**

Qishloq xo‘jaligi vaziri tomonidan 2024-yil 13-yanvarda “Komplaens nazorat va korrupsiyaga qarshi kurashish bo‘limining 2024-yil uchun ish rejasi” tasdiqlangan, ish rejada Qishloq xo‘jaligi vazirligi markaziy apparati, xududiy bo‘linmalari, tizim tashkilotlari va muassasalarida korrupsiyaning oldini olish va unga qarshi kurashish borasida amalga oshiriladigan vazifalar belgilangan hamda bu vazifalarni o‘z muddatlarida bajarilishi bo‘yicha Komplaens nazorat va korrupsiyaga qarshi kurashish bo‘limi tomonidan har chorak yakuni bo‘yicha doimiy monitoring olib borilmoqda.

O‘zbekiston Respublikasi Korrupsiyaga qarshi kurashish milliy kengashining 12-son bayonidagi topshiriqlar ijrosi yuzasidan 2024-yil 14-fevralda 01/15-18-son “Qishloq xo‘jaligi vazirligining hududiy va soha (tarmoqlar) kesimida 2024-yil uchun korrupsiyaga qarshi kurashish yo‘nalishida aholining huquqiy ongi va huquqiy madaniyatini yuksaltirishga, jamiyatda korrupsiyaga qarshi murosasiz munosabatni shakllantirishga doir chora-tadbirlar rejasi” tasdiqlangan bo‘lib, chora-tadbirlar rejasida belgilangan vazifalarni o‘z muddatlarida bajarilishi bo‘yicha Komplaens nazorat va korrupsiyaga qarshi kurashish bo‘limi tomonidan doimiy monitoring olib borilmoqda.

Vazirlikning tegishli topshiriq xatlariga asosan Vazirlik xududiy bo‘linmalari, tizim tashkilotlari va muassasalari tomonidan har chorak yakuni bilan korrupsiyaning oldini olish va unga qarshi kurashish borasida amalga oshirilgan ishlar yuzasidan Vazirlik markaziy apparati Komplaens nazorat va korrupsiyaga qarshi kurashish bo‘limiga ma’lumotnoma va hisobotlar taqdim qilindi.

Qishloq xo‘jaligi vaziri tomonidan 2024-yil 6-martda tasdiqlangan 247-son “Qishloq xo‘jaligi vazirligi tizimidagi tarkibiy bo‘linmalar va tizim tashkilotlarda Korrupsiyaga qarshi kurashish va Inson resurslarini rivojlantirish va boshqarish yo‘nalishida tashkil etilgan ishlar natijadorligini o‘rganish, amaliy yordam berish hamda davra suhbati, seminar-treninglar o‘tkazish Grafigi” ga asosan o‘rganish hamda seminar treninglar amalga oshirildi.

Vazirlikning 2024-yil 15-martdagи 81-son “O‘zbekiston Respublikasi Qishloq xo‘jaligi vazirligi xodimlarini korrupsiyaga qarshi kurashish yo‘nalishida o‘qitish va malaka oshirishini tashkil etish chora-tadbirlari to‘g‘risida” buyrug‘iga asosida xodimlarni korrupsiyaga qarshi kurashish yo‘nalishida o‘qitish va malakasini oshirish ishlari amalga oshirildi.

Vazirlikning 2024-yil 11-iyundagi 155-son O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2024-yil 5-iyundagi “O‘zbekiston Respublikasining “Manfaatlar to‘qnashuvi to‘g‘risida”gi Qonuni ijrosini samarali tashkil etish chora-tadbirlari to‘g‘risida” PQ-210-son qarori ijrosini ta‘minlash chora-tadbirlari haqida buyrug‘iga asosida Qonun ijrosini tashkil etish ishlarini muvofiqlashtirib borish, Qonun hamda Qaror mazmun-mohiyatini tizim tashkilotlari va muassasalari xodimlariga yetkazish ishlari amalga oshirildi.

**II. Siyosat va tartib-taomillar**

Qishloq xo‘jaligi vazirligi tizimida korrupsiyaga qarshi kurashish borasidagi faoliyatni takomillashtirish va korrupsiyaga qarshi kurashish samaradorligini yanada

oshirish maqsadida vazirning 2024- yil 2-apreldagi 90-son buyrug‘i bilan vazirlikning korrupsiyaga qarshi kurashish sohasiga taalluqli bo‘lgan ichki idoraviy hujjatlari:

Qishloq xo‘jaligi vazirligining korrupsiyaga qarshi kurashish Siyosati;

Qishloq xo‘jaligi vazirligi markaziy apparati, hududiy bo‘linmalar, tizim tashkilotlari va muassasalari faoliyatida korrupsiyaviy xavf-xatarlarni aniqlash va baholash Uslubiyoti;

Qishloq xo‘jaligi vazirligi markaziy apparati, hududiy bo‘linmalar, tizim tashkilotlari va muassasalarida manfaatlar to‘qnashuvini boshqarish to‘g‘risidagi Nizom;

Qishloq xo‘jaligi vazirligi markaziy apparati, hududiy bo‘linmalar, tizim tashkilotlari va muassasalarida aloqa kanallari orqali korrupsiyaviy xatti-harakatlar to‘g‘risida kelib tushgan xabarlarni qabul qilish va ko‘rib chiqish Regamenti;

Qishloq xo‘jaligi vazirligi markaziy apparati, hududiy bo‘linmalar, tizim tashkilotlari va muassasalarida xodimlarining etika va korrupsiyaga qarshi kurashish sohasida o‘qitilishini tashkil qilish bo‘yicha Yo‘riqnomasi;

Qishloq xo‘jaligi vazirligi markaziy apparati, hududiy bo‘linmalar, tizim tashkilotlari va muassasalarida kontragentlarni tekshirishga oid Yo‘riqnomasi;

Qishloq xo‘jaligi vazirligi markaziy apparati, hududiy bo‘linmalar, tizim tashkilotlari va muassasalariga ishga qabul qilinayotgan nomzodlarni tekshirish bo‘yicha Yo‘riqnomasi;

Qishloq xo‘jaligi vazirligi markaziy apparati, hududiy bo‘linmalar, tizim tashkilotlari va muassasalarida Korrupsiyaga qarshi tartib-taomillarning samaradorligini monitoring va nazorat qilish Uslubiyoti;

Qishloq xo‘jaligi vazirligi markaziy apparati, hududiy bo‘linmalar, tizim tashkilotlari va muassasalarida korrupsiyaga qarshi kurashish tizimining holati to‘g‘risidagi hisobotni shakllantirish va taqdim etish bo‘yicha Nizom;

Qishloq xo‘jaligi vazirligi markaziy apparati, hududiy bo‘linmalar, tizim tashkilotlari va muassasalari xodimlarining korrupsiyaviy hatti-harakatlari va odob-ahloq qoidalarini buzish holatlari ustidan xizmat tekshiruvlari o‘tkazish bo‘yicha Regament,

Qishloq xo‘jaligi vazirligi markaziy apparati, tizimdagи respublika ijro etuvchi hokimiyat organlari, hududiy bo‘linmalar, tizim tashkilotlari va muassasalarida korrupsiyaga oid huquqbazarlik haqida xabar bergan yoki korrupsiyaga qarshi kurashishga boshqa tarzda ko‘maklashgan xodimlarni rag‘batlantirish tartibi to‘g‘risidagi Nizom;

Qishloq xo‘jaligi vazirligi markaziy apparati, hududiy bo‘linmalar, tizim tashkilotlari va muassasalari xodimlari tomonidan xizmat safarlari, xalqaro va boshqa rasmiy tadbirlar munosabati bilan olinishi mumkin bo‘lgan sovg‘a qiymati shuningdek uni tasarruf etish tartibi to‘g‘risidagi Nizom;

vazirning 2024- yil 4-dekabrdagi 283-son buyrug‘i bilan:

“O‘zbekiston Respublikasi Qishloq xo‘jaligi vazirligi markaziy apparati, hududiy bo‘linmalar, tizim tashkilotlari va muassasalarida manfaatlar to‘qnashushi to‘g‘risida” Nizom yangi tahrirda ishlab chiqildi va va amaliyotga tatbiq qilindi.

### **III. Xavf-xatarlarni baholash**

Komplaens-nazorat va korrupsiyaga qarshi kurashish bo‘limi tomonidan “O‘zbekiston Respublikasi Qishloq xo‘jaligi vazirligi to‘g‘risida Nizom”da belgilangan 107 funksiya “E-anticor” platformasining Korrupsiyaviy xavf-xatarlarni aniqlash va baholash moduli funksiyalar bo‘limiga kiritilib, korrupsiyaviy xavf-xatarlar xaritasi shakllantirildi. Platformaning Xavf-xatarni baholash bo‘limida funksiyalar bo‘yicha mavjud xavf-xatarlarni baholash jarayonlari amalga oshirilib, bajarilgan ishlar platforma orqali Korrupsiyaga qarshi kurashish agentligiga yuborildi. Korrupsiyaviy xavf-xatari yuqori bo‘lgan funksiyalar bo‘yicha mehnat faoliyatini yuritayotgan xodimlar uchun o‘quv seminarlari tashkil qilinib, korrupsiyani oldini olish va qarshi kurashish bo‘yicha malakalari oshirib borildi.

### **IV. Amalga oshiriladigan korrupsiyaga qarshi kurashish tartib-taomillar**

#### **Manfaatlar to‘qnashuvini tartibga solish**

Vazirlik tomonidan O‘zbekiston Respublikasi Qishloq xo‘jaligi vazirligida manfaatlar to‘qnashuvini boshqarish bo‘yicha Nizom talablariga muvofiq vazirlik xodimlari o‘rtasida manfaatlar to‘qnashuvini oldini olish maqsadida “Manfaatlar to‘qnashuvining mavjudligi/mavjud emasligi haqidagi arizalar”ni to‘ldirish tizimi joriy qilib, ishga yangi kirgan xodimlardan ishga yangi kirganda to‘ldiriladigan deklaratsiyalar to‘ldirilgan holatda qabul qilib olindi va to‘ldirilgan manfaatlar to‘qnashuvi bo‘yicha deklaratsiyalar tahlil qilib chiqildi. Tahlillar davomida manfaatlar to‘qnashuvi holatlari aniqlanmadi.

Shuningdek, vazirlikda xodimning o‘zi tomonidan mavjud manfaatlar to‘qnashuvi to‘g‘risida xabar berish, yani vazirlik xodimining yaqin qarindoshlari va unga aloqador bo‘lgan shaxslar mazkur xodimning mehnat qilayotgan tashkiloti bilan huquqiy munosabatga kirishayotganida manfaatlar to‘qnashuvi to‘g‘risida yozma yoki elektron shaklda xabar berishi tizimi joriy qilindi

#### **Korrupsiyaga qarshi qoidalarni Tashkilot shartnomalariga kiritish**

Qishloq xo‘jaligi vazirligida kontragentlar bilan tuziladigan xo‘jalik shartnomalariga Korrupsiyaga qarshi qoidalarni kiritish joriy qilingan bo‘lib, ushbu Korrupsiyaga qarshi qoidalari kiritilmagan shartnomalar bo‘yicha kontaragentlar bilan shartnomalarni bekor qilish bo‘yicha tegishli choralar ko‘rildi.

#### **Kontragentlarni tekshirish**

Qishloq xo‘jaligi vazirligida xarid qilish tartib-taomillari, shu jumladan to‘g‘ridan-to‘g‘ri shartnoma tuzishda manfaatlar to‘qnashuvi va shaxsiy manfaatdorligi bilan bog‘liq bo‘lgan Korrupsiyaviy xatarlarni, insofsiz ijrochi bilan shartnoma tuzish xatarini kamaytirish va xarid jarayoni ishtirokchisining shartnomada belgilangan tovarlarni yetkazib berish yoki xizmat ko‘rsatish, ishlarni bajarish imkoniyatini baholash maqsadida kontragentlarni tekshirish tizimi joriy etildi.

#### **Ishga nomzodlarni tekshirish**

Vazir markaziy apparatiga nomzodlar ishga qabul qilishda nomzodlarning lavozim majburiyatlarini bajarish uchun yetarli bilim va tajribaga egaligi, uning professional faoliyati, boshqa jismoniy va yuridik shaxslar bilan qarindoshlik va tijorat aloqalari, huquqbazarliklar sodir etishga moyil emasligi, rahbarlik va moddiy javobgarlik bilan bog‘liq lavozimlarga bilimli, halol, vijdonli, qonunga itoatkor xodimlarni tanlab olish joriy qilingan.

Jumladan, yil davomida vazirlik markaziy apparatiga yangi ishga qabul qilingan 63 nafar nomzodlar ustidan tekshiruvlar o'tkazildi. Tekshiruv natijalari bo'yicha ushbu nomzodlar bo'yicha barcha holatlarda ijobiy xulosalar qabul qilindi.

## V. Ta'lim va kommunikatsiya

Vazirlik xodimlari, shu jumladan, ishga yangi qabul qilingan xodimlarni vazirlikning hr.agro.uz platformasi va Vazirlikning Koplaens nazorat telegram kanali orqali Korrupsiyaga qarshi kurashish bo'yicha muntazam o'qitib borilmoqda.

Vazirlikning 2024-yil 15-martdagi 81-son "O'zbekiston Respublikasi Qishloq xo'jaligi vazirligi xodimlarini korrupsiyaga qarshi kurashish yo'nalishida o'qitish va malaka oshirishini tashkil etish chora-tadbirlari to'g'risida" buyrug'iga asosida 30-sentabr kuni joriy yilning birinchi choragida ishga kirgan xodimlarni korrupsiyaga qarshi kurashish yo'nalishida o'qitish va malakasini oshirish ishlari amalga oshirildi.

Vazirlikning Komplaens nazorat xizmati tomonidan vazirlik tizimi miqyosida Korrupsiyaga qarshi kurashish bo'yicha nimalarga ahamiyat qaratish, kelgusida amalga oshirilishi lozim bo'lgan amaliy ishlarni aniqlash maqsadida xodimlar o'rtasida Korrupsiyaga qarshi kurashish mavzularida jami 1138 ta keng ko'lamli bevosita va onlayn targ'ibot tadbirlari amalga oshirildi. Shundan, 433 ta ma'ruza, 443 ta davra suhbatni va 134 ta seminar, 6 ta konferensiya va 55 ta uyma-uy yurish orqali tashkil etildi. Shuningdek, vazirlik tizimida ommaviy axborot vositalari orqali jami 340 ta huquqiy targ'ibot tadbirlari amalga oshirildi.

## VI. Korrupsiyaviy xatti-xarakatlar va huquqbuzarliklar to'risidagi xabarlar

Vazirlik tizimida Korrupsiya holati haqida tezkor xabar berish imkonini beruvchi 1243 qisqa raqami tashkil etilgan. Ushbu qisqa raqami orqali fuqarolar bilan to'g'ridan-to'g'ri muloqotni yo'lga qo'yilgan, Korrupsiyaviy holatlar haqida ma'lumotlarni qabul qilish amalga oshiriladi.

Shuningdek, Korrupsiya haqida xabar berishga mo'ljallangan vazirlikning "agro.uz" rasmiy veb-sayti, [anticorruption@agro.uz](mailto:anticorruption@agro.uz) elektron pochta manzili, ijtimoiy tarmoqlardagi sahifalari va "UzAgroAnticorruptionBot" telegram boti tashkil etilgan.

Vazirlik Markaziy apparatiga 2024-yilda korrupsiya faktlariga doir 44 ta murojaat kelib tushgan bo'lib, ularning 19 tasi O'zbekiston Respublikasi Prezidentining virtual qabulxonasi, 2 tasi Korrupsiyaga qarshi kurashish agentligi, 1 tasi O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining Inson huquqlari bo'yicha vakili (Ombudsman) kotibiyati, 2 tasi O'zbekiston Respublikasi Oliy Ta'lim, Fan Va Innovatsiyalar Vazirligi, 2 tasi Tadbirkorlar virtual qabulxonasi, 19 tasi Qishloq xo'jaligi vazirligiga to'g'ridan to'g'ri ravishda kelib tushgan.

Shundan hududlar bo'yicha, Andijon, Sirdaryo, Qashqadaryo viloyatidan 1 tadan, Samarqand, Namangan viloyatidan 2 tadan, Buxoro va Xorazm viloyatidan 3 tadan, Toshkent, Farg'ona viloyatlaridan 4 tadan, Toshkent shaxri, Buxoro viloyatidan 5 tadan, Navoiy viloyatidan 6 ta va Surxondaryo viloyatidan 7 ta murojaat murojaat kelib tushgan.

Qishloq xo'jaligi vazirligi markaziy apparatiga kelib tushgan korrupsiyaviy holat mavjudligi tahmin qilingan murojatlar ko'rib chiqilganda murojaatlarda keltirilgan faktlar o'z tasdig'ini topmadi.

## **VII. Monitoring va nazorat**

Vazirlik komplayens-nazorat va korrupsiyaga qarshi kurashish bo‘limi tomonidan vazirlik tizimidagi tashkilotlarda korrupsiyani oldini olish va korrupsiyaga qarshi kurashish yo‘nalishida amalga oshirilgan ishlarni o‘rganish, seminar-treninglar orqali xodimlar malakasini oshirish maqsadida 2024 yilda 27 ta tizim tashkilotida seminar treninglar amalga oshirildi. 9-dekabr Xalqaro korrupsiyaga qarshi kurashish kuni munosabati bilan vazirlik markaziy apparati, tizim tashkilotlari va xududiy bo‘linmalarida ochiq eshiklar kuni doirasida seminarlar tashkil qilindi.

## **VIII. Aniqlangan qoidabuzarliklar va ularga ta’sir choralari**

O’tkazilgan tadbirlar yakuni bilan bilan shakllantirilgan ma’lumotlar va xisobotlar tegishli tartibda vazirlik rahbariyatiga taqdim qilinib rahbariyat ko‘rsatmasiga asosan tegishli ta’sir choralari ko‘rib borilmoqda.

## **IX. Xulosalar**

Xulosa o‘rnida aytish mumkinki, yangi tahrirda qabul qilingan korrupsiyaga qarshi kurashish bo‘yicha ichki idoraviy hujjatlarni tizim tashkilotlari va xududiy bo‘linmalar tomonidan ijroga qabul qilinishini ta’minalash, korrupsiyaga qarshi kurashish sohasida ishlab chiqilgan ish reja va dasturlarni o‘z vaqtida amalga oshirish, vazirlik tizimi xodimlarining huquqiy ongi va huquqiy madaniyatini yuksaltirish, vazirlik tizimida korrupsiyaga nisbatan murosasiz munosabatni shakllantirish qishloq xo’jaligi sohasida olib borilayotgan keng ko‘lamli islohotlarga to‘sinq bo‘layotgan illatlarni bartaraf etishda muhim ahamiyat kasb etadi.

## **X. Korrupsiyaga qarshi kurash tizimini yanada rivojlantirish bo‘yicha takliflar va tadbirlar rejasi**

Vazirlik tizimida korrupsiyaga qarshi kurashish tizimining alohida ko‘rsatkichlarni markaziy apparat, hududiy va tarkibiy bo‘linmalar kesimida yaxshilash uchun korrupsiyaga qarshi kurashish tizimi yo‘nalishiga mas’ul bo‘lgan xodimlar orasida yuqorida-pastga va pastdan-yuqoriga ma’lumot almashish imkonini beruvchi aloqani yanada mustahkamlash muhim axamiyat kasb etadi.

Komplaens nazorat va  
korrupsiyaga qarshi kurashish  
bo‘limi boshlig‘i



S. Xalilov